

ZAMONAVIY HARBIY TO'QNASHUVLARDA XUSUSIY HARBIY KOMPANIYALARNING ROLI VA AHAMIYATI

Fozilov Sardor Ziyadullayevich

*O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti Markaziy harbiy
okrug fakulteti Umumqo'shin tayyorgarlik kafedrasi katta o'qituvchisi, podpolkovnik*

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 25.03.2026

Revised: 26.03.2026

Accepted: 27.03.2026

*maqolada zamonaviy urushlar, ularning harbiy
xizmatchi psixikasiga ta'siri borasida chet el
tadqiqotlari asosida munosabat bildirilgan*

KALIT SO'ZLAR:

*jang, harbiy
xizmatchi, jangovar
vaziyat, armiya, psixika,
omil*

Zamonaviy jang – bu harbiy xizmatchining jismoniy va ruhiy kuchini, favqulodda jangovar vaziyatlarga qarshi tura olish qobiliyati, hayot uchun o'ta xavfli vaziyatlarga chidamliligi, irodasini saqlay olishi va unga berilgan jangovar vazifani oxirigacha yetkaza olishini qattiq sinovidir. Bir vaqtning o'zida u qarshi tomon harbiy xizmatchilarini maqsadga yetish, motivlar, ishonchi, kayfiyati, irodasi, fikrlarining beshavqat kurashi ham hisoblanadi.

Jangovar vaziyatda harbiy xizmatchi ruhiyatiga ta'sir qilishning bir qator qonuniyatlari bor. Ularni anglab yetish harbiy xizmatchilarga jang vaqtida ta'sir qiladigan ma'naviy va ruhiy ta'sirlarning oldini olish “inson omili”dan samarali foydalanish va g'alabaning kalitini topish imkonini beradi.

Jangovar vaziyatda harbiy xizmatchi ruhiyatiga bir qator ta'sirlar kuzatiladi. Ularning ayrimlari harbiy xizmatchining jismoniy va ruhiy imkoniyatlarini to'liq safarbar etishga xizmat qilsa, ayrimlari esa aksincha, harbiy xizmatchining jangovar faoliyatini susayishiga,

inson organizmining zaxiralarining foydalanishini cheklashga olib kelsa, yana birlari jangovar xulq-atvoriga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Harbiy psixologiya uchun harbiy xizmatchilar harakati va ruhiyatiga, ularning psixikasiga nimalar ta'sir qilishini, ya'ni qanday omillar ularga jangovar faolligini susaytirishini bilish muhimdir. Bunday omillar ustida ancha vaqtdan buyon izlanishlar olib borilmoqda.

Urush borasida xalqning qarashlari harbiy xizmatchilarga uch tomondan ta'sir ko'rsatadi.

Birinchidan harbiy xizmatchilar jamiyatdagi kayfiyatdan kelib chiqib, tegishli ko'nikma va jangovar xulqqa ega bo'ladilar. Bo'lib o'tgan va o'tayotgan qurolli mojarolarni o'rganish shuni ko'rsatadiki g'alaba keltiruvchi janglar o'zida harbiy xizmatchining va butun xalqning yuragidagi xohish irodasini aks ettirgan.

Ikkinchidan harbiy xizmatchilarning jangovar tayyorgarligi xalqning o'z armiyasiga bo'lgan munosabati darajasi bilan aniqlanadi. Bu qonuniyat psixologlar tomonidan o'tgan asrdayoq aytib o'tilgan edi. M.V. Zenchenko armiyaning quvvati uchun butun xalqning qiziqishi lozimligiga urg'u bergan bo'lsa, A.Agapiv Fransiya va Germaniya xalqlarining o'z armiyasiga munosabatini o'rganib, bu munosabatlar jangda hal qiluvchi rol o'ynashini ta'kidlaydi. Bu qonuniyatlar AQSH armiyasining Vetnamdagi harakatlari chog'ida ham aks etgan.

Uchinchidan askarlar o'z xalqining dushmanga nafrati bilan qurollanadilarki, bu ularning jangovar harakatlarini faollashtiradi. Urushlar tajribasi shuni ko'rsatadiki aksariyat janglarda raqibni yovuz, o'z Vatani ozodligiga rahna soluvchi raqib sifatida ko'rgan armiya g'alaba qozonib kelgan. Shu sababli har qanday urush insonlar ongida harbiy qarashlarni shakllantirish borasida uzoq muddatli ishlarni talab qiladi.

Harbiy xizmatchilarning xulq-atvoriga ta'sir etuvchi ijtimoiy omillarning yana biri bu harbiy bo'linmaning uyushganligidir. Bu alohida harbiy xizmatchining ruhiy turg'unligi va faolligini ta'minlashi uchun asos bo'ladi. Olib borilgan jangovar harakatlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, bir birini yaxshi bilgan bo'linmalar jangda faollik ko'rsatib kelgan. Nemis harbiy psixologi YE.Dikter qo'rquv, ishonchni yo'qotish kabilar faol harakatlarni amalga oshirishga turtki bo'ladi, degan edi. So'nggi vaqtlarda rivojlangan mamlakatlar armiyalarining harbiy bo'linmalarida "o'zaro birodarlik muhiti"ni shakllantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Bunda jamoa a'zolari bir birlariga ruhiy zo'riqishlar vaqtida yordam beradilar. Harbiy xizmatchining safdoshi yordamga kelishini bilishi unga qiyin vaziyatlarda ham ishonch bag'ishlaydi.

Ingiliz armiyasining Folklend orollaridagi harakatlarini o'rganib "Sokdjer" harbiy jurnali ingliz askarlari o'z birodarlari uchun jangga kirganliklarini ta'kidlaydi. U siyosat yoki strategiya uchun emas, balki safdoshi uchun harakat qiladi, deb yozib o'tgan. Ushbu qonuniyatni o'rganib chiqqan AQSH harbiy boshliqlari 80-yillarda "qo'shinlarni jamlash tizimi"ni ishlab chiqdilar. Unga ko'ra (yangi harbiy xizmatchilar) bitta shtatdan bo'lgan harbiy xizmatchilar bitta bo'linmada xizmat qilishi ko'zda tutilgan. Bugungi kunda bunday tizim qariyb 80 % harbiy qo'shinlarga joriy qilingan. Ushbu tizim Rossiyaning bir qator harbiy okruglarida ham qo'llanilmoqda.

Jangovar harakatlarni tartibga solishda ijtimoiy omillar bilan birga harbiy xizmatchilarni mohirona boshqaruv ham yuqori o'rinda turadi. AQSH, Rossiya, Isroil armiyalarining so'nggi o'n yillikdagi jangovar harakatlari shuni ko'rsatadiki, o'z komandiriga ishongan harbiy xizmatchilar hatto bajarishi mumkin bo'lmagan vazifalarni uddasidan chiqqan.

Jangovar omillar – jangda harbiy xizmatchilarning harakatlariga ta'sir etuvchi reaksiyalar. Harbiy psixologik izlanishlar ma'lumotlariga ko'ra bular: jangovar harakatlarning samaradorligi, qo'llanilgan qurol turi, himoya vositalarining ishonchligi tabiiy-geografik omillar va iqlim kabilardir.

Oxirgi paytda mutaxassislar jang maydonida o'limga olib kelmaydigan qurol va psixotron qurollarning qo'llanilishi xaqida o'ylanmoqdalar. Jang maydonida jangovar texnikaning harakatsizligi va boshqaruv tizimlarining ishdan chiqishi harbiy xizmatchilarga qanday ta'sir qilishini taxmin qilish mumkin. Harbiy xizmatchilarga ularning qismlari va bo'linmalari ustidan psixotron vositalar qo'llanilishi raqibning psixofiziologik holatiga, jangovar faolligiga ta'sir etishini ham hisobga olish kerak.

Harbiy psixologlar tomonidan harbiy xizmatchilarning harbiy faolligiga ta'sir etuvchi jismoniy va ruhiy yo'qotishlarning ta'siri anchadan beri o'rganilib kelinmoqda. N. N. Golovin "qo'shinlarning ma'naviy-ruhiy turg'unligi chegarasi" terminini ham kiritgan. U bu termin ostida harbiy xizmatchilarning yo'qotishlariga qaramay jangovar holatni davom ettira olishini tushungan. 18 asr oxiri va 19 asr janglari harbiy xizmatchilarning ma'naviy-ruhiy turg'unligi chegarasi 25 % deb belgilangan.

80-yillarda Amerikalik tadqiqotchilar 2-jahon urushi va Arab-Isroil mojarolarida mag'lubiyatlarning yo'qotishlar darajasiga bog'liqligini o'rganib, qo'shinlar 6 % (hujumda 4 %, mudofada 8 %) yo'qotishga ega bo'lsalar, mag'lubiyatga uchrashini ta'kidlagan.

Bu haqida iste'dodli psixolog G.YE.Shumkov "harbiy psixologiya qo'mondon uchun jangovar vaziyatning barcha jabhalarida harbiy xizmatchining kuch va ishchanlik sirini ochgan taqdirdagina u uchun ajralmas fanga aylanadi deb ta'kidlab, harbiy xizmatchining

ishchanlik qobiliyatini oshiruvchi va tushiruvchi daqiqalar haqida o'zining qarashlarini ishlab chiqqan va ishchanlikni pasaytiruvchi omillarga qarshi kurash usullarini ko'rsatib o'tgan.

O'tgan asrning ikki mudhish urushi: ikkinchi jahon urushi va Afg'oniston urushlarini o'rganish natijasida jangovar qobiliyatga ta'sir etuvchi ikki: ichki va tashqi omillar ko'rsatilgan.

Tashqi omillar o'z ichida jangovar va ijtimoiy omillarga bo'linadi.

Ijtimoiy omillar harbiy xizmatchiga jangovar vaziyatda hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi, shuningdek, ijtimoiy muhitning, jangovar tuzilmalarning shakllanishiga xizmat qiladi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, jangovar harakatlarning xarakteri xalqning qarashlari bilan bog'liq bo'ladi. Bu o'z o'rnida urushning maqsadini, uni keltirib chiqaruvchi ijtimoiy, iqtisodiy, milliy, siyosiy sabablarga bog'liq. Urush borasidagi odamlarning qarashlari bu urush qaysi hududda bo'layotganligi mamlakatning qanday hududi unda ishtirok etayotganligi, jangovar harakatlarning qay darajada samarali olib borilayotganligi bilan ham bog'liqdir.

Jangovar faollikka o'z qo'shinidan uzilib qolish omili ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Amerikalik psixolog R.U.Storlet fikricha 48 soat davomida o'z qo'shinlaridan uzilib qolgan bo'linmaning faolligi ellik foizga kamayadi.

Izlanishlar shuni ko'rsatadiki, harbiy xizmatchining xulq-atvoriga yaqqol ta'sir etuvchi omillardan yana biri – jangovar harakatlarning samaradorligidir. Harbiy xizmatchilarning jangovar faoliyatiga yashash tarzining normalari buzilishi (yomon ob-havo, iqlim o'zgarishlari) ham ta'sir ko'rsatadi.

Ichki omillarga psixofiziologik va psixologik omillar kiradi.

Fiziologik omillar orasida harbiy xizmatchi xatti harakatida asab tizimi tipi xarakterli ahamiyat kasb etadi. Asab tizimi tipi uchga bo'linadi: kuchli, o'rtacha va kuchsiz.

Kuchsiz asab tizimi. Jangovar vaziyat ba'zida harbiy xizmatchini shunday psixologik holatga tushirib qo'yadiki, ular o'zlarini yo'qotib qo'yadilar, hatto tibbiy yordam ham zarur bo'lib qoladi.

Harbiy xizmatchilar orasida bunday tiplar 15-18 % ni tashkil etadi.

Mazkur vaziyatlarda o'rtacha asab tizimidagi harbiy xizmatchilar qisqa muddatga jangovar faolligi pasayadi. Ular 65-75 % ni tashkil etadilar.

Kuchli asab tizimli harbiy xizmatchilar esa (ular 10-15 %) psixotravmatik vaziyatlarda o'zlarini umuman yo'qotmaydilar.

Shuningdek, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, jangovar vaziyatlarda harbiy xizmatchilar o'zlarini tutishlari ularning temperamentlariga ham bog'liq.

Sangvinik temperamentli harbiy xizmatchilar favqulodda jangovar vaziyatlarda tez qaror qabul qilib, qo'rqmay jangga kirishadi. Mabodo harakatlar samarasiz bo'lsa, ular bir zumda karaxt holatiga tushib qolishadi, ammo tezda o'zlarini yana qo'lga olishadi.

Yuqori emotsional holatlarda xolerik temperamentidagi harbiy xizmatchilarda jasurlik, tez qaror qabul qilish kabi sifatlar namoyon bo'ladi. Ammo dushman tomon kuchlari balandlab ketsa, tez qo'rquv iskanjasida qoladilar.

Flegmatik temperamentli tiplar esa jangovar vazifani bajarishga tayyorgarliklari yaxshi bo'lsa, jangni qo'rqmay, faol olib borishadi. Ular hissiy holatlarni bosiqlik bilan o'tkazadilar.

Melanxolik temperamentli harbiy xizmatchilar kutilmagan vaziyatlarda faollik ko'rsatishadi.

Xullas, jangovar harbiy harakatlarning psixologik omillari haqida gap borar ekan, harbiy xizmatchi qanaqadir qurol emasligiga alohida e'tibor qaratish lozim. Jangning hal qiluvchi pallasida harbiy xizmatchining xatti harakatlarida uning yo'nalganligi, xarakter xususiyatlari, aqliy salohiyati, iroda kuchi, hissiyotlari, qobiliyati namoyon bo'ladi. Bular haqida ma'lumotga ega bo'lmay turib, favqulodda jangovar vaziyatlarda fidoiylilik, o'zini qurbon qilib bo'lsada, shaxsiy tarkibni, jangovar texnikani asrab qolish, tavakkaliy harakatlar kabi shaxsiy sifatlarini tushunish oson emas.

Birlamchi motivlar va jangovar tajriba darajasi jangning "ikkinchi" darajali psixologik omillari (xavf, kutilmagan holat, qo'qqisdan hujum, jangovar voqealarning natijalari, vaqt va ma'lumot kamligi, quroldosh do'stlarni yo'qotish va boshqalar) ta'sirlari jarayonida harbiy xizmatchining xatti harakatlarini belgilaydi.

Harbiy xizmatchining jangovar faoliyatining jismoniy, ruhiy, ijtimoiy va jangovar omillari turli vaqtlarda, har xil holatda turli kombinatsiyalarda namoyon bo'ladi.

Jangning talofati, jangovar do'stlarining o'limi harbiy xizmatchilarda turlicha ta'sir qiladi. Bu uning urushning mohiyatini qanday tushunishlari va albatta temperamentlari, jangovar tajriba, asab tizimi tiplariga qarab farqlanadi.

Barcha ofitserlar jangning harbiy xizmatchilar psixikasiga ta'siri qanday bo'lishini o'rganib, ularni ruhiy tayyorgarligini ta'minlashlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bronevitskiy G.A. Psixologo-pedagogicheskiy slovar ofitsera vospitatelya korabelnogo podrazdeleniya. - Novorossiysk: «S legkoy ruki», 2005. – s 46.
2. Kitayev-Smik L. A.Psixologiya boyevogo stressa. Tekst doklada na konferensii "Psixologiya voyni" v Voyennom universitete MO.2003g.
3. Chertopolox A.A. Informatsionno- psixologicheskiy faktor v sovremennoy voyne. Voyenniy universitet. Uchebnoye posobiye. Moskva – 1998. s 348.
4. Abduraxmanov i dr. Voyennaya psixologiya. Moskva. Voyenniy universitet 1996g.s 136.

